

MAHALLA INSTITUTINING BOLA RIVOJLANISHIDAGI ROLI .

*Denov tadbirkorlik va pedagogika
Instituti pedagogika fakulteti mak-
tabgacha ta'lim yo'nalishi I bosqich
talabasi .*

*Ergasheva Farangiz Qo'ldoshovna.
To'raqulova Dilnoza Oripovna.
Aliyorova Laylo Sherali qizi.*

Annotatsiya.

Ushbu maqolada mahalla institutining bola tarbiyasida , rivojlanishidagi o'rni , mahalla sub'ektining o'ziga xos xususiyatlari va o'zbekiston hududida mahalla-larning ijtimoiy hayotdagi vazifalari haqida so'z boradi. Bolaning tarbiyasida mahalla institutlarining, ota- onalarning, oilaning, jamiyatning o'rni haqida yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: ota-ona tarbiyasi , mahalliy oila, jamiyat, mahalliy boshqaruv, tarbiya maskani, mahalliy hokimiyat, individ.

Kirish.

Mahallalarda yuz berayotgan va to'planib qolgan muammolarni va kamchiliklarni ishonchli va samarali yechish tinch-totuvlikni asrab-avaylash yo'lida barcha say-harakatlarni birlashtirish lozim.

SH.M.Mirziyoyev.

Kelajak avlotlarimiz bo'lmish yoshlarimizning rivojlanishi , aqlan yetuk , komil inson bo'lib rivojlanishi uchun jamiyat, ota-ona, mahalla institutlarining roli katta xisoblanadi . O'zbekistonda demokratik jamiyat barpo etishda mahallaning o'rni katta .Kuchli davlatdan – kuchli jamiyat sari konsepsiyasi mahalla faoliyatining tashkiliy asoslarini yanada takomillashti va uning asosiy yo'nalishlari .Mahalla instituti bir necha asrlik qadimiy tarixga ega bo'lsada , uning huquqiy asoslari yaratilgan va jamiyat boshqaruvida o'ziga xos vakolatlarga ega bo'lgan davri mam-lakatimizning mustaqillikka erishgan davri hisoblanadi . Chunki , mustaqil o'zbekis-tonning bosh qomusi – konstitutsiyasining 105 – maddasiga mahalla instituti haqida qoidalar, kiritib uning vakolat muddati belgilab berildi. Konstitutsiyada belgilab berilgan ushbu qoidalar asosida 1993-yil 2 – sentyabrda “ Fuqorolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida “gi O'zbekiston Respublikasining qonuni qabul qilindi. Mazkur qonun bilan fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari faoliyatini tashkil etish tartiblari, vakolat muddati belgilab berildi . Fuqarolar yig'ini raisi oqsaqolini saylash jarrayoni ham fuqarolar yig'ini faoliyatini samarali tashkil etishning asosiy

ommilaridan biri hisoblanib ushbu jarayonni yanada tartibli o'tkazish uning aniq meyorlarini joriy qilish maqsadida 2004 yil 29 aprelda fuqarolar yig'ini raisi oqsoqoli va uning mastlaxatchilari saylovi to'g'risidagi qonun qabul qilinadi . Qonun fuqorolarning o'zini – o'zi boshqarish organlarining axolini ijtimoiy ximoyaga muxtoj qatlamlarini ijtimoiy qo'llab – quvvatlash borasidagi vazifalari yanada chuqurlashtirib bandlikka ko'maklashish va axolini ijtimoiy muxofaza qilish markazlari bilan birgalikda ijtimoiy qo'llab quvvatlashga muxtoj kam taminlangan oilalar , yolg'iz keksalar , pensyonerlar , va nogironlarni aniqlash fuqorolarning bantlikka ko'maklashish xaqida normalar kiritilgan .

Xulosa.

Mahalla instituti bugungi kunga kelib jamiyat va davlat ijtimoiy xayot tarzining eng jo'shqin , aktiv, jonli, markaziga aylanib bormoqda. Mahalla institutini rivojlantirish qo'llab – quvvatlash va moddiy taminlash o'z samarasini bermoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. SH.M.Mirziyoyev."Innavatsion ta'lim. " 2017.
2. SHodmonova . S. Axmedova. T . Mahalla komisiyalari faoliyatida transformatsion jarayonlar . Demokratlashtirish va inson huquqlari- N -3 – 2014 .
3. "Ilk qadam davlat o'quv dasturi ." – T; 2022.